

7-SINF "JAHON TARIX" FANI DARSLIGI BO'YICHA

FAN: Jahon tarixi

SINF: 7-sinf

MAVZU: "Xalqlarning buyuk ko'chishlari va uning natijalari"

TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	6 - sinf "Xalqlarning buyuk ko'chishlari va uning natijalari"
Maqsad, vazifalar	Maqsad: O'quvchilarga <i>xalqlarning buyuk ko'chishlari va uning natijalari</i> to'g'risida bilimlar berish Vazifalar: - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimni baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	<i>Piramida va maqbaralar tarixini o'rganishdan iborat</i>
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og'zaki bayon qilish, «Tushunchalar tahlili» metodi, «FSMU» texnologiyasi Shakl: suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar: matnlar, Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

DARSNING BLOK CHIZMASI

№	Dars bosqichlari	Vahti
1.	Tashkiliy qism	3 minut
2.	O‘tilgan mavzuni takrorlash	7minut
3.	Yangi mavzuni guruhlar bilan ishlash	20 minut
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
5.	Baholash	3 minut
6.	Uyga vazifa	2 minut

DARSNING BORISHI

I. Tashkiliy qism:

O‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O‘zbekistonda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o‘quvchilar orqali) tanishtirish.

Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko‘rish

1. Darslik,
2. Dunyo va O‘zbekiston xaritasi
3. Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar) (ilova qilinadi)
4. Sinf xonasini guruhlariga ishlashga tayyorlash (sinf o‘quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhga bo‘lib, stollarni qo‘yib chiqish)
5. Guruhlarni baholash uchun har bir o‘quvchiga quyidagicha jadval tayyorlanadi:

№	Savollar	<i>To‘g‘ri va to‘liq javob</i>	<i>Qisman to‘g‘ri javob</i>	<i>Umuman javob yo‘q</i>
1.	Xalqlarning buyuk ko‘chishlarining asosiy sabablarini sanab o‘ting?			
2.	Xaritadan german qabilalari yashagan hududlarni ko‘rsating?			
3	Germanlar davlat barpo etilguniga qadar qanday ijtimoiy tuzumda yashaganlar?			

Izoh: to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar soni belgilanadi

Dars turi: Aralash

Dars jarayonida qo‘llaniluvchi metodlar: Kichik ma‘ruza, guruhlarda ishlash metodlari.

Sinfni guruhlar bilan ishlashga tayyorlash

O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga sud tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yozilgan kartochkalar tayyorlanadi.

II. Yangi dars mazmuni (“Xalqlarning buyuk ko‘chishlari va uning natijalari”):

O‘qituvchi yangi mavzuni slaydlar asosida qisqacha ma‘ruza orqali tushuntiradi (slaydlar va ma‘ruza ilova qilinadi).

Ma‘ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ Xalqlarning buyuk ko‘chishlari
- ❖ German qabilalari
- ❖ Germanlar mashg‘ulotlari

III. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun

2-USUL: TUSHUNCHALAR TAHLILI USLUBI

Uslubning mohiyati. Ushbu uslub o'tilgan o'quv predmeti yoki bo'limning barcha mavzularini o'quvchilar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'quvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga yo'naltirilgan.

Uslubning maqsadi. O'quvchilarni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallanganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, sinfdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatish.

Uslubning qo'llanilishi: o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida o'tilgan mavzuni o'zlashtirganlik darajasini baholash, shuningdek, Yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro'yxati, qalam yoki ruchka, slayd.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'quvchilarni guruhlariga ajratiladi;
- o'quvchilar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
- o'quvchilar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- o'quvchilar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan bilimlari asosida izoh yozadilar;
- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali tanishtiriladi;
- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

Izoh: «Tushunchalar tahlili» uslubini «Chaynvord», «Uzluksiz zanjir», «Klaster», «Blits-zanjir» shaklida ham tashkil etish mumkin.

«Tushunchalar tahlili» uslubidan bir darsning o'zida dars boshlanishida o'tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin.

Quyidagi mashg'ulotda foydalaniladigan tarqatma materialni misol tariqasida keltiramiz.

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI
Milodiy IV-VI asr	-
Xalqlarning buyuk ko'chishlari	-
Xunn	-
Varvar	-
Milodiy II asrdan	-
Varvar qabilalari II-IV asrlarda	-
Franklar	-
Vestgotlar	-
Ostgotlar	-

Vandallar	-
Burgundlar	-
Reyn	-
Elba	-
Poxol	-
Galliya urushi haqida xotiralar	-
Tatsit	-
Germaniya	-
Qahrabo	-
Natijada V-VI asrlarda ...	-

1-USUL: "FSMU" TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (yoki o'quvchi) larning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya tinglovchi (yoki o'quvchi) larni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi - tinglovchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallanganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Texnologiyaning maqsadi. Ushbu texnologiya tinglovchi (yoki o'quvchi)larni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi har bir tinglovchi (yoki o'quvchi)ga «FSMU» texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu yerda:

- **F**- fikringizni bayon eting;
- **S** –fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- **M** – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;
- **U** – fikringizni umumlashtiring.
- o'qituvchi tinglovchi (yoki o'quvchi)lar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;
- yakka tartibdagi ish tugagach, tinglovchi (yoki o'quvchi)lar kichik guruhlariga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruhlariga «FSMU» texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;
- kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;
- o'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi;
- mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi

VAZIFA. «*Xalqlarning buyuk ko'chishlari va uning natijalari*» mavzusi bo'yicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting:

- **F**- fikringizni bayon eting;
- **S** –fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- **M** – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;
- **U** – fikringizni umumlashtiring.

V. Dars yakunlanadi va baholanadi

O'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o'qituvchi baholash uchun o'quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to'g'ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroki va dars

jarayonida jadvalning to'g'ri to'ldirilganligi va kartochkalar bilan to'g'ri ishlaganligi e'tiborga olinib baholanadi.

VI. Uyga vazifa

Yangi mavzuni darslik bo'yicha o'qib, mavzu oxiridagi savollarga javob tayyorlash.

MA`RUZA

Milodiy IV-VI asrlarda Yevropani, xunn qabilalari boshlab bergan Xalqlarning buyuk ko'chishlari jarayoni qamrab oladi. Ushbu jarayonning qator sabablari bo'lgan. Avvalo, german qabilalarida aholi sonining ko'payib borishi natijasida yangi yerlarga bo'lgan talabning oshishi va mulkiy tabaqalanishning kuchayishi ularni yangi hududlarni egallashga undaydi. Bundan tashqari, xunnlarning IV asrdan Sharqdan hujumlari ko'plab varvar qabilalarini o'z makonlaridan siljishga majbur etadi. Yevropada II asrdan iqlimning soviy boshlashi V asrga kelib ekinzorlarni qo'riqqa, suv havzalari va ularga yaqin yerlarni esa botqoqliklarga aylantirdi. Ushbu omillar xalqlarni yasash va xo'jalik yuritish uchun yangi qulay hududlarni izlashiga turtki bo'ladi.

Rim imperiyasining shimoliy chegaralari bo'ylab joylashgan varvar qabilalari II-IV asrlarda ham urug'chilik jamoasi darajasida yashar edilar.

Qadimgi german qabilalari Reyn va Elba daryolari havzasida joylashganlar. Germanlar urug' jamoalari oilalarga bo'linib, har bir oila yog'ochlardan yasalgan uylarda yashaganlar. Uylarning tomi poxol bilan yopilgan. Qishloq tevaragi himoyalani uchun tuproqdan uyuib yasalgan to'siq va xandaqlar bilan o'rab olingan.

Asosiy mashg'ulotlari chorvachilik bo'lgan. Germanlar chorvadan tashqari parranda boqqanlar, ov va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Milodiy asr boshlaridan aholi sonining ko'payishi xo'jalikda dehqonchilikning ahamiyatini oshiradi.

Lekin germanlarda yer xususiy mulkka aylanmagan. Qabila oqsoqollari har yili ekin maydonlarini urug' va yirik oilalarga qur'a bilan taqsimlab bergan. Erkaklarning asosiy mashg'ulotlari urush bo'lganidan, yerga ishlov berish ayollar va qariyalarning yumushi sanalgan. Ularga bolalar ham yordam berishgan. Jangdan bo'sh paytlarda erkaklar ov qilganlar.

Urug' jamoalari hamkorlikda o'rmondagi daraxtlarni kesib, yangi yerlar ochganlar. Yerga oddiy yog'och so'qa bilan ishlov berishi, yerni o'g'itlanmasligi ekinzorlarni kuchsizlanib II-III yildan so'ng hosilni keskin kamayishiga olib kelgan. Germanlarda keyinchalik omochdan temir plugga o'tilishi mehnat unumdorligini va olinadigan hosilni oshirgan.

Asrlar o'tib dehqonchilikda almashlab ekish qo'llanila boshlandi. Milodiy IV asrdan bahorgi va kuzgi bug'doy o'rniga dukkakli ekinlar ekish, haydalgan yerni ikki dalaga bo'lib biriga don sepib, ikkinchisini shudgor qilib dam berish hamda ularni har yili almashtirib turish yo'lga qo'yiladi. Bu hosil miqdorini oshirish bilan bir vaqtda ekinzorlarni tez-tez almashtirish zaruriyatidan xolos etadi. Germanlar don va dukkakli ekinlardan tashqari poliz mahsulotlari, sabzavotlar, shu jumladan karam yetishtirganlar.

Tarixchi Tatsitning yozishicha, germanlar temir va boshqa ma'danlarni qazib olish, eritishni bilganlar. Ularda II-IV asrlarda hunarmandchilikning to'qimachilik, yog'ochsozlik, zargarlik, teri-ko'pchilik sohalari taraqqiy etgan. Ichki savdoda eng muhim ashyo temir buyumlar hisoblangan. German qabilalari qo'shinlari rimliklarga: qullar, chorva mollari, teri, qahrabo – qattiq, qatronli va tiniq sariq rangli ma'dan, yetkazib berib ulardan nafis gazlamalar, sopol idishlar, zeb-ziynat buyumlari, vino olishgan. Savdo mol ayriboshlash shaklida bo'lib, faqat imperiya bilan chegara hududlarda rim puli ishlatilgan.

German qabilalari IV-V asrlardan keng hududlarni nazorat qiluvchi qabila ittifoqlariga birlasha boshlaydi. Alemann, got, frank qabila ittifoqlari bir necha yuz ming kishidan iborat bo'lgan. Yillar o'tib qabilalarning oliy organ hisoblangan xalq yig'inlari sekin-asta o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Ular asosan urush va tinchlik, konunglarni saylash vazifalarini bajargan. Harbiy bo'linmalar va ularning yo'lboshchilari ahamiyati o'sgan.

O'qituvchi: A. Tursunov